
ERKIN VOHIDOV G‘AZALI TAHLILI

Shohnova Xo‘janazarova,

Alfraganus universiteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda Erkin Vohidov g‘azallarining janriy va badiiy xususiyatlari, xususan, mumtoz aruz an‘analarini zamonaviy she‘riyat bilan uyg‘unlashtirishdagi mahorati tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoirning “She‘r aziz olam” g‘azali misolida aruz vazni, qofiya tizimi, badiiy san‘atlar, ritmik pauza hamda kompozitsion qurilishning o‘ziga xos jihatlari ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, Erkin Vohidovning mumtoz g‘azalchilik an‘analarini davom ettirish va ularni yangi badiiy-estetik mazmun bilan boyitishdagi o‘rni ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shoir ijodining zamonaviy o‘zbek g‘azaliyoti taraqqiyotidagi ahamiyatini asoslaydi. mazkur maqolada Erkin Vohidov g‘azaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, mumtoz aruz vaznining zamonaviy she‘riyatdagi talqini tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Erkin Vohidov, g‘azal, aruz vazni, ramali musammani mahzuf, mumtoz adabiyot, zamonaviy she‘riyat, badiiy san‘atlar, ritmik pauza, qofiya, she‘riy kompozitsiya, o‘zbek g‘azaliyoti.

Zamonaviy barmoq vazni taraqqiy etib, davr she‘riyati uchun xos xususiyatga aylangan bir paytda mumtoz adabiyot janrlarining qayta jonlanishi shoir she‘riyatini boshqalardan farqli qiladi. Ijodining dastlabki davrlaridayoq yetuk ijodkorlar e‘tiboriga tushgan Erkin Vohidov haqida Said Ahmad “...*bu bola mudragan aruzni uyg‘otib yubordi. Ivirsiq shoirlar aruzni adoyi tamom qilgan edilar. Aruz baayni pati yulingan tovuq bo‘lib qolgandi. Erkin uni arab, fors so‘zlaridan tozalayapti. Sof o‘zbek g‘azalini yaratyapti ... Juda chiroyli, ma‘noli, mahorat bilan yozilgan g‘azallari ko‘p ekan*”[2; 87], deya iliq fikrlar bildiradi. Shuningdek, Abdulla Oripov zamondoshi Erkin Vohidov haqida shunday deydi: “Sobir Abdulla, Habibiy, Charxiy singari mo‘tabar siymolardan keyin mumtoz g‘azaliyotimizning oltin eshiklari abadiy bekiladi, deya karomat qilishayotganda yosh avlod orasidan birinchilardan bo‘lib Erkin Vohidov aruzning tabarruk ostonasida posbon yanglig‘ paydo bo‘ldi” [1; 10].

Aruz vaznining tabarruk ostonasida posbon yanglig‘ paydo bo‘lgan Erkin Vohidov nafaqat mumtoz vaznni jonlantirdi, balki uni zamonaviy ohanglar, XX asrga oid ifoda uslublari bilan boyitdi. Erkin Vohidov g‘azallari yangi davr kitobxonlarini mumtoz adabiy janrlar bilan bog‘lovchi ko‘prik bo‘lib xizmat qilgani rost.

Quyida shoirning bir g‘azalini tahlilga tortamiz. “She‘r aziz olam” deb nomlanuvchi ushbu g‘azal shakl va mazmun jihatini adabiy tushunchalar yordamida izohlab, uning badiiyatini ochib berishga harakat qilamiz. G‘azal shoirning she‘riyat, ijodga bo‘lgan oshuftaligini madh etib, shunday misralar bilan boshlanadi:

She‘r aziz olam aro Menga tiriklik, jon qadar,
Jon nedir oshiq uchun, Jondin aziz jonon qadar.

G‘azal ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan bo‘lib, afoyili va taqti’si quyidagicha: foilotun/ foilotun/ foilotun/ foilun. –V —/ –V —/ –V—/ –V –. Qofiyalanishi: 1.Qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra murdof qofiya. 2.Qofiyalar tuzilishiga ko‘ra mutlaq qofiya. Raviysi n. G‘azalda shoir takrir, tazod, husni talil, nido, talmeh san‘tlaridan keng foydalangan. Erkin Vohidov she‘riyatining o‘ziga xosliklaridan biri shundaki, shoir she‘riy kompozitsiya yaratishda ritmik pauzadan keng foydalanadi. Ya’ni ritmik pauza barmoq va aruz vaznlari orasidagi bir ko‘prik vazifasini o‘taydi. Bilasizki, barmoq vazni to‘rtliklar ketma ketligidan tashkil topsa, aruz vazni she‘r misralarida qisqa va cho‘ziq bog‘inlarning ma’lum tartibda guruhlanib takrorlanishiga, ya’ni misradagi hijolar miqdori va sifatiga, ochiq yopiqligiga asoslanadi. G‘azal sakkiz baytdan iborat (bir bayt ikki misradan iborat) bo‘ladi. Ammo ijodkor bir baytni to‘rtga bo‘ladi, ya’ni har bir misra o‘rtasida ritmik pauza qo‘llaydi va buni she‘r shakliga ham singdiradi. Bu g‘azal matlasida shoirning naqadar she‘riyatga oshuftaligi, oshiqning yoriga bo‘lgan muhabbati timsolida yoritib berilgan G‘azalning maqtasida esa shoir o‘z she‘riyatga bo‘lgan muhabbatini cheki yo‘qligini agar davom ettirmoqchi bo‘lsa oxiriga yetolmasligi aytadi.

She‘rdin ayru tonglarim Yaldo tuniday *zim-ziyo*,
She‘r bilan tunlar *charog‘on* Xurshidi tobon qadar.

Navbatdagi misralarda shoir Yaldo tuni, Xurshidi tobon, zim-ziyo, charog‘on so‘zlari orqali tazod san‘atini yuzaga keltiradi. She‘rsiz o‘tgan kunlarini zim-ziyo, she‘r bilan otgan tonglarini esa charog‘on, quyoshli tonglarga mebgzaydi.

She'r o'zi jonon emasmu, Yondirar hijronida,
Gohi boqsa bir qiyo, Boshim bo'lur osmon qadar.

Navbatdagi misralarda shoir madh etayotgan she'r obrazi mumtoz adabiyotdagi an'anaviy yor obraziga tenglashtiriladi. She'r jonon kabi shoirni hijronga soladi, gohi bir boqib boshini osmon qadar yuksaltiradi.

Kimki oshiqdur jahonda, She'rga bo'lgay muftalo,
Ishq uchun tengdur *gadodan* To buyuk *sulton* qadar.

Keyingi misralarda shoir she'r madhini davom etirib, oshiq ahlining barchasini "she'rga muftalo" deb ataydi. Ma'lumki, she'r ahlining barchasi qalboni ishq otashi o'rtagan ilhom manbai sohiblaridir. Shoir she'rni ma'shuqa kabi madh etishda davom etib, uning uchun shoh va gado teng, barobar ekanini ta'kidlaydi. She'r davomida esa o'zidan oldingi buyuk siymolar taqdiriga bir nazar solib, shoh Bobirning achchiq qismatini o'quvchi yodiga soladi:

Shoh *Bobir Hindu sori* Yurdi-yu, shoir va lek
Yig'ladi Farg'onadin to Mulki Hindiston qadar

Umuman olganda shoir har bir asariga o'zgacha bir taradud bilan yondashgani ulardagi so'zlarning o'ynoqiligi, falsafaning kuchliligi, mavzuning dolzarbligi bilan anglashiladi. Yuqorida keltirilgan g'azal ham fikrimiz isbotidir. Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov ijodi o'zbek she'riyatida mumtoz adabiy an'analar bilan zamonaviy badiiy tafakkurni uyg'unlashtirgan muhim hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shoir aruz vaznini XX asr ruhiga mos holda qayta jonlantirib, uni yangi mazmun va ohanglar bilan boyitdi hamda mumtoz g'azal janrining zamonaviy adabiy jarayondagi imkoniyatlarini kengaytirdi. "She'r aziz olam" g'azali orqali shoir she'riyat va ijodga bo'lgan cheksiz muhabbatini mumtoz yor obrazi timsolida badiiy ifodalab, she'rni inson ruhiy hayotining ajralmas qismi sifatida talqin qiladi. G'azalda qo'llangan badiiy san'atlar, ritmik pauza va vazn bilan bog'liq yangicha yondashuvlar shoir mahoratini yaqqol ko'rsatadi. Mazkur tahlil Erkin Vohidov g'azaliyoti mumtoz va yangi davr she'riyati o'rtasida mustahkam badiiy ko'priq vazifasini bajarganini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Oripov A. So‘z sehri. –Toshkent: O‘zbekiston, 2006. –10-b.
2. Said Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. – T.: Sharq, 1999. 87-bet.
3. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she‘riyatda Bobur g‘azallarining poetik xususiyatlari. *Alfraganus*, (1 (1)), 30-34.
4. Juraeva, N. G. (2021). Observation of the poetic unity of the verse in the poetry of Muhammad Riza Ogahi. *International Journal of Linguistics, Literature and Culture*, 7(4), 293-302.
5. Жумаева, С. Ч. “ТАҒАЗЗУЛ” ДОСТОНИДА ШАРҚОНА ТАҒАККУР ВА ФАЛСАФИЙ МУШОҲАДАЛАР ТАЛҚИНИ.
6. Tursunaliyeva, M. A. (2025). OGHIYNING “GULSHANI DAVLAT” ASARIDA HAMD VA NA’T QISMLARINI BERILISHI. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 618-627.
7. TURAEVA, B., & KUCHIMOV, U. POETIC MODELS OF THE CONCEPT “LITERARY TIME”.
8. Inomjonovna, I. D., & Husanova, U. (2025, May). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TILNING PAYDO BO ‘LISHIGA OID QARASHLAR. In *Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 162-164).
9. Ibragimova, D. I. TERMINOLOGY OF HISTORICAL PROSE AND THE GENRE ISSUE IN UZBEK LITERARY STUDIES.
10. Ibragimova, D. I. (2024). AN ANALYSIS OF ISAJON SULTON’S HISTORICAL PROSE: ERA, HEROES, THEMES, AND IDEAS. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 5(05), 120-127.
11. Isoxonovich, X. M. (2025). AHMAD ZAKI VALIDIYNING TARIXDA PARADIGMAL YONDASHUVLARI. *Alfraganus Universiteti Konferensiya Materiallari*, 5(1), 883-890.
12. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). THE PLACE OF ECOLOGY IN THE VALUE SYSTEM OF YOUTH IN TRADITIONAL SOCIETIES (BASED ON THE CASE STUDY: A SOCIOLOGICAL RESEARCH CARRIED OUT RECENTLY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN). *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 35-48.
13. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). ARISTOTLE’S LOGICAL DOCTRINE TRANSFORMATION IN EASTERN PERIPATETICS WORKS. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 4-13.
14. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.